

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ZOOLOGIYA INSTITUTI**

**UMAROV SANJARBEK SIDIQOVICH**

**FARG'ONA VODIYSIDA OVLANADIGAN SUV-BOTQOQ  
QUSHLARI TURLARINING FAUNASI VA ULARDAN FOYDALANISH**

**03.00.06-Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Umarov Sanjarbek Sidiqovich**

Farg‘ona vodiysida ovlanadigan suv-botqoq qushlari turlarining faunasi va  
ulardan foydalanish.....3

**Умаров Санжарбек Сидикович**

Фауна охотничьих видов водно-болотных птиц Ферганской долины  
и их использование.....21

**Umarov Sanjarbek Sidikovich**

Fauna of hunting species of wetland birds of the Fergana valley  
and their use.....39

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ZOOLOGIYA INSTITUTI**

**UMAROV SANJARBEK SIDIQOVICH**

**FARG'ONA VODIYSIDA OVLANADIGAN SUV-BOTQOQ  
QUSHLARI TURLARINING FAUNASI VA ULARDAN FOYDALANISH**

**03.00.06-Zoologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/B1259 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Zoologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.izoology.uz](http://www.izoology.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kashkarov Roman Daniilovich**  
biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Xolboyev Faxriddin Raxmonqulovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Kamilov Baxtiyor Ganiyevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.52.01 raqamli Ilmiy kengashining 2026-yil «16» yanvar kuni soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232<sup>b</sup>-uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.:(+998971) 289-04-65; E-mail: [zoology@academy.uz](mailto:zoology@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1734-AR-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232<sup>b</sup>-uy. Tel.: (+99871) 289-04-65.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «29» dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «29» dekabrdagi 13-raqamli reestr bayonnomasi).



**B.R. Xolmatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**G.S. Mirzayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

**A.E. Kuchboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida suv-botqoqli hududlarning qisqarishi global ekologik muammo sifatida namoyon bo‘lib, bu jarayon bir tomondan tabiiy landshaftlarning degradatsiyasiga, ikkinchi tomondan esa suv-botqoq qushlarining asosiy yashash joylarining yemirilishi va sifatining yomonlashuvi natijasida ularning populyatsiyalarining son jihatdan qisqarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, migratsiya davrida antropogen ta’sirning ortishi qushlarning to‘xtash va oziqlanish hududlarini cheklab qo‘yadi, bu esa ularning tabiiy hayotiy sikliga jiddiy havf tug‘diradi. Shu bois, suv-botqoq qushlari populyatsiyalarini chuqur o‘rganish, antropogen ta’sir darajasini baholash va ularning barqarorligini ta’minalash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu masalalarni hal qilish nafaqat qushlarni muhofaza etish va ov resurslaridan barqaror foydalanishni yo‘lga qo‘yish uchun muhim, balki aholining ekologik ongini yuksaltirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda hayvonot dunyosi resurslaridan oqilona foydalanish, xususan, ov ahamiyatiga ega bo‘lgan suv-botqoq qushlaridan barqaror foydalanish masalalari bo‘yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan ushbu tadqiqotlar suv-botqoq qushlari populyatsiyalarining mavsumiy dinamikasini o‘rganish, ularning tabiiy yashash joylarini saqlab qolish, ov kvotalarini ilmiy asoslash, shuningdek, turlardan barqaror foydalanish tizimini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, amaliyotda tabiiy resurslarni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga yordam beradi. Tadqiqotchilar tomonidan asosan ovchilik xo‘jaliklarini samarali tashkil etish, ovlanadigan hayvon turlaridan barqaror foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish, ov turizmini rivojlantirish, zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida ov obyektlarining hududiy tarqalishi bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish, hamda suv qushlarini ovlash jarayonini samarali boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda qushlarning turlar xilma-xilligini saqlash, ularni muhofaza qilish hamda mavjud turlar kadastrini yuritish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, ushbu faoliyat doirasida kamyob va yo‘olib borayotgan, iqtisodiy ahamiyatga ega turlarni muhofaza qilish, ularning populyatsiyalarini monitoringini olib borish hamda ilmiy asoslangan ma’lumotlar bazasini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida<sup>1</sup> “...biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta’minalash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur’atlarini pasaytirish, hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘olib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish” kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, mamlakatimizning aholi eng zich joylashgan hududi – Farg‘ona vodiysi

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi to‘g‘risida” 484-son qarori.

sharoitida ov ahamiyatiga ega bo‘lgan suv-botqoq qushlari turlarining xilma-xilligini aniqlash, ularning hozirgi holati va resurs ahamiyatini to‘g‘ri baholash, mavjud turlarga antropogen omillarning ta’sir darajasini o‘rganish va ushbu ta’sirni yumshatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentabrdagi O‘RQ-408-son “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 8-iyuldaggi O‘RQ-627-son “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida” gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur taqdijot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” mavzusidagi ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasasi.** Ovlanadigan suv-botqoq qushlarining tur tarkibi, sistematikasi, tarqalishi, biologiyasi, ekologiyasi hamda ovchilik xo‘jaligini to‘g‘ri tashkil etish va ov resurslaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar xorijlik olimlar: B.T. Gray (1994), J. Madsen et al., (1995), J. Madsen (1995), H. Kokko et al., (1998), A. Gammel (1999), L. Munro (1999), G. Griffin (2000), Y. Moy (2010), A. Benitez-Lopez et al., (2017), A. Hirschfeld (2019), T. Htay et al. (2023) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida ham ovchilik resurslaridan oqilona foydalanish, ovchilik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ovchilikning biologik xilma-xillikni saqlashdagi o‘rni, ovchilik sohasidagi muammolar, shuningdek, ovchilik turizmini ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Ushbu masalalar bir qator tadqiqotchilar I.M. Sapetina (1967), V.F. Gavrin (1972), N.N. Grakova (1973), A.M. Kolosov (1975), E.S. Gusakov (1986), E.S. Gusakov va boshq., (1986), A.K. Kidiraliyev (1990), S.P. Matveychuk (2000), V.V. Melnikov (2003), A.P. Kaledin (2004), V.N. Krayeva (2010), A.V. Medvedev (2010), I.P. Kokorina (2012), A.A. Piminov va boshq., (2012), S.B. Rozenfeld va boshq., (2012), A.N. Solovev va boshq., (2012), V.S. Vilkov va boshq., (2013), V.V. Makaryushenko (2014), N.T. Yushkevich (2015), V.V. Kolesnikov va boshq., (2017), S.Sandakova va boshq., (2019), A.M. Ostapchuk (2020), I.A. Zuban (2020), N.V. Lebedeva (2022) tomonidan amalga oshirilgan.

O‘zbekistonda ov ahamiyatiga ega turlarning tarqalish hududlari, migratsiya yo‘nalishlari, ov xo‘jaliklaridagi taqsimoti, biologiyasi, ekologiyasi va ularni muhofaza qilish to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlar N.A. Seversov (1873), M.N. Bogdanov (1882), N.A. Zarudniy (1915), L.A. Molchanov (1932),

N.A. Gladkov (1933), M.M. Ahmedov (1948, 1950), G.I. Ishunin, X.S. Salixbayev (1963, 1984), D.Yu. Kashkarov (1965), A.V. Mixeev, I. Kudlenok (1968), T.Z. Zohidov (1971), M.M. To‘rayev (1995), E.Sh. Shernazarov (1996), M.A. Jumanov (2007), M.G. Mitropolskiy va O.V. Mitropolskiy (2014), M.G. Mitropolskiy (2018), M.G. Mitropolskiy, V.O. Sudarev va boshqa., (2011), G.F. Goncharov (2015), A.A. Ataxodjayev, V.O. Sudarev (2017), Ya.I. Ametov (2018), R.R. Raxmonov (2019), I.M. Arepbayev (2020), R.D. Kashkarov va boshq., (2020), R.D. Kashkarov va boshq., (2025) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Biroq, Farg‘ona vodiysi qushlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning asosiy qismi qishloq xo‘jalik ekinlariga zarar yetkazuvchi qushlarning biologiyasi, ekologiyasi va tarqalishini o‘rganishga bag‘ishlangan (Fedchenko 1868, 1871; Seversov 1877; Zarudniy 1908, 1909; Loudon 1909; Kashkarov 1923, 1925; Malchevskiy va boshq., 1941; Sharipov 1974; Mamashukurov 2021) ishlar amalga oshirilgan.

Shunday qilib, Farg‘ona vodiysidagi ov ahamiyatiga ega bo‘lgan suv-botqoq qushlarini o‘rganish hozirga qadar kompleks va maqsadli amalga oshirilmagan. Natijada, mavjud ilmiy adabiyotlar ushbu masala bo‘yicha to‘laqonli ma’lumotlarni bera olmaydi. Shu sababli, hudud suv havzalarida yashovchi suv-botqoq qushlarining tur tarkibini, ularning soni va populyatsiyalarining hozirgi holatini aniqlash hamda ushbu turlarga antropogen omillarning ta’sir darajasini obyektiv baholash hamda zarur amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

### **Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Zoologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Umurtqali hayvonlar faunasi inventarizatsiyasi, hozirgi holatini baholash va barqaror foydalanish bo‘yicha ilmiy amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish” (2020-2024 yy.) ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Farg‘ona vodiysida ovlanadigan suv-botqoq qushlarining faunistik tarkibi, ekologiyasi, sonining zamonaviy holati, mavsumiy va hududiy taqsimlanishi, ovlanadigan turlarga mavjud antropogen ta’sir darajasini aniqlash hamda biologik resurslardan barqaror foydalanish usullarini takomillashtirishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Tadqiqot hududlarida uchrovchi ovlanadigan suv-botqoq qushlari tur tarkibini aniqlash;

Farg‘ona vodiysi suv havzalarida ovlanadigan suv-botqoq qushlarining tarqalishini o‘rganish va hududiy taqsimlanishini tahlil etish;

suv havzalarida ovlanadigan suv-botqoq qushlari sonining mavsumiy dinamikasi va turlar xilma-xilligi ko‘rsatkichlarini o‘rganish;

ayrim suv-botqoq qushlarning uyalash biologiyasini o‘rganish;

ovlanadigan suv-botqoq qushlariga antropogen ta’sir darajasini tahlil qilish;

ovlanadigan suv-botqoq qushlari resurslaridan barqaror foydalanishni ta’minlashga doir ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Farg‘ona vodiysi suv havzalaridagi ovlanadigan suv-botqoq qushlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Farg‘ona vodiysi suv havzalarida suv-botqoq qushlari populyatsiyalarining zamonaviy holati, biologiyasi, hududiy taqsimlanishi, soni va muhofazasi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada umumqabul qilingan zoologik va zamonaviy statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quydagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysini o‘rganish tarixida ilk bora uchta viloyatning ovlanadigan suv-botqoq qushlari faunasining zamonaviy holati baholangan;

Farg‘ona vodiysi suv havzalaridagi ovlanadigan suv-botqoq qushlari faunasining 5 turkum, 6 oilaga mansub 23 turdan iborat zamonaviy tarkibi aniqlangan;

ilk bor tadqiqot hududida katta qoravoyning (*Phalacrocorax carbo*) uyalashi isbotlangan va zamonaviy usullar yordamida turning uyalash biologiyasi bo‘yicha xususiyatlari aniqlangan;

tadqiqot hududidagi asosiy suv-botqoq yerlarida ovlanadigan qushlarning soni va mavsumiy dinamikasi ochib berilgan;

xilma-xillik indekslaridan foydalangan holda ovlanadigan qush turlari populyatsiyalarining yashash sharoiti va fenologik mavsumlarga bog‘liq o‘xhashliklari hamda farqlari asoslangan;

ekologik sharoitning xilma-xilligiga qaramasdan suv qushlari orasida, katta churrak (*Spatula querquedula*), yovvoyi o‘rdak (*Anas platyrhynchos*), churrak (*Anas crecca*), qizilbosh (*Aythya ferina*) va qashqaldoq (*Fulica atra*) kabi turlar nisbatan barqaror populyatsiyalarni hosil qilib, dominant guruh sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quydagilardan iborat:

Suv havzalarining holati va suv-botqoq qushlarining hududiy taqsimlanishi, ovlanadigan turlarning zamonaviy tur tarkibini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar asosida sport va havaskorlik ovini o‘tkazish uchun maqbul hududlar aniqlangan;

suv-botqoq qushlari va ularning yashash muhitiga xavf soluvchi antropogen omillar aniqlangan va tizimlashtirilgan, ularga salbiy ta’sir darajasi yuqori bo‘lgan hududlar aniqlangan;

Iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan 4 turning soniga oid ma’lumotlardan 2023-2024-yillarda turlarni tabiatdan ajratib olishga doir kvotalarni shakllantirishda foydalanilgan;

2022-2025-yillarda o‘tkazilgan mazkur tadqiqot doirasida suv-botqoq qushlarining qishki hisob natijalari “International Waterbirds Census” Yevroosiyo dasturi doirasida Wetlands International (Niderlandiya) Xalqaro tabiatni Muhofaza qilish tashkilotining ma’lumotlar bazasiga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda klassik va zamonaviy usullarning qo‘llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarini nazariy ma’lumotlariga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi shuningdek, statistik tahlillarning ishonchlilagini ta’minlashda xilma-xillik

indekslarining ko‘rsatkichklari PAST 4.0 va R dasturining 4.4.3 versiyasi (R Core Team 2013) orqali hisoblanganligi, turlarning tarqalishini global bioxilma-xillik platformasiga (GBIF) joylanganligi hamda amaliy natijalarini vakolatli Davlat tashkilotlari tamonidan tasdiqlanganligi va amaliyatga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg‘ona vodiysida ovlanadigan suv-botqoq qushlarining zamonaviy tur tarkibi, ularning hududiy taqsimlanishi, soni va populyatsiyalarining hozirgi holati aniqlanganligi, turli suv havzalarida ekologik omillar va mavsumiy davrlarga bog‘liq holda turlar tarkibining o‘xhash va farqli jihatlari zamonaviy usullar yordamida tahlil qilinganligi, ayrim turlarning biologiyasi va ekologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari ohib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan ilmiy ma’lumotlar muhim hududlarda suv-botqoq qushlarini muhofaza qilish strategiyasini ishlab chiqishda, ov kvotalarini asoslashda, antropogen omillar ta’sirini baholashda, ov resurslaridan barqaror foydalanishni tartibga solishda va tegishli davlat dasturlarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg‘ona vodiysida ovlanadigan suv-botqoq qushlari turlarining faunasi va ulardan foydalanish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ovlanadigan suv-botqoq qushlarining 2 oila, 4 avlod, 6 turga mansub 7 ta qush namunalari respublikada yetakchi bo‘lgan “Zoologiya kolleksiysi” noyob obyektiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 7-apreldagi 4/1255-873-son ma’lumotnomasi). Natijada, mavjud ornitologik kolleksiya fondini yangi namunalar bilan boyitilgan va suv-botqoq qushlarining zamonaviy holatini baholash, tarqalish joylarini aniqlash, turlarni qiyosiy tahlil etish, morfologik belgilarini tavfsiflash imkonini bergen;

Ov ahamiyatiga ega suv-botqoq qush turlarining Farg‘ona vodiysi suv havzalarida tarqalishiga doir ma’lumotlar Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘iga (GBIF) joylashtirilgan (Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘ining 2025-yil 11-apreldagi 034-sonli ma’lumotnomasi). Bu Farg‘ona vodiysida uchraydigan ovlanadigan suv-botqoq qushlarining geografik tarqalishini tahlil qilish imkon bergen.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 ta respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsyaning “**Farg‘ona vodiysi va unga yondosh hududlardagi suv qushlari faunasining o‘rganilganlik holati**” deb nomlangan birinchi bobo uchta bo‘limdan iborat bo‘lib, ushbu bobda yaqin xorijiy davlatlar hamda O‘zbekistonda ovlanadigan suv-botqoq qushlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ornitologik tadqiqotlarning tarixi va hozirgi holati batafsil yoritilgan. Ushbu bobda suv-botqoq qushlarining tur tarkibi, sistematikasi, tarqalishi, biologiyasi va ekologiyasi bilan bir qatorda, ovchilik xo‘jaligini tashkil etish va ov resurslaridan oqilona foydalanishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar tahlil qilingan.

Adabiyotlarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, Farg‘ona vodiysida amalga oshirilgan dala tadqiqotlarining aksariyati, asosan Chumchuqsimonlar (Passeriformes) turkumiga mansub xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan turlarning biologiyasi va ekologiyasiga qaratilgan. Suv-botqoq qushlariga oid ma’lumotlar esa ko‘proq fragmentar xususiyatni tashkil etadi. Shu bilan birga, inson omili ta’sirida tabiiy yashash muhitining qisqarishi yoki o‘zgarishi sharoitida zamonaviy turlar tarkibi, hududiy taqsimlanishi, ekotizimlardagi o‘rni, ularni ovchilik resursi sifatida muhofaza qilish va boshqarish zarurati masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Dissertatsyaning ikkinchi bobo “**Tadqiqot hududining tabiiy-geografik xususiyatlari, material va uslublari**” deb nomlangan to‘rt bo‘limdan iborat. Farg‘ona vodiysining fizik-geografik tavsifi, landshaftlarning hozirgi holati va ularning xo‘jalik faoliyati ta’sirida o‘zgarishi zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, olingan ma’lumotlar hajmi va zamonaviy tadqiqot usullari – suv havzalari ornitofaunasi obyektlarining tur tarkibi, soni, ayrim turlarning uya biologiyasi bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish hamda turli indekslar yordamida suv havzalari ornitofaunasining xilma-xillagini hisoblash usullari bayon qilingan.

Tadqiqot materillari 2023-2025-yillarda Farg‘ona vodiysining Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari hududida olib borilgan. Tadqiqot doirasida 10 ta yirik suv omborlari, Sirdaryo daryosining chap qirg‘oq bo‘yidagi mavjud suv havzalarida, 1 ta tabiiy ko‘l hamda sun’iy baliq yetishtirish hovuzlarida amalga oshirilgan (1-rasm).

Barcha mavsumlarni qamrab olgan dala kuzatuvlari jami 223 kun davomida olib borilgan. Bu davr ichida 496 ta statsionar kuzatuv punktida tizimli kuzatishlar amalga oshirildi. Asosan Sirdaryo daryosining chap qirg‘oqlari bo‘ylab avtomobilida o‘tkazilgan hisoblar uzunligi 2504 km tashkil etgan. Natijada, ov qilinadigan 23 turdagи suv qushlarining soni, uchrashi va hududiy taqsimlanishi bo‘yicha ma’lumotlar to‘plangan.




## 1-rasm. Farg‘ona vodiysi xaritasi va tadqiqot olib borilgan suv havzalari

Qushlarni hisobga olish, identifikatsiyalash, kuzatish va suratga olish jarayonida zamonaviy texnika vositalari: Vortex binokli ( $10\times42$ ), “Swarovski” teleskopi ( $30-70\times95$ ), “Nikon” P1000 fotoapparati, “Garmin” navigatori, “Bushnell” fotoqopqoni va zamonaviy dala aniqlagichlardan (Ryabitsev va boshq., 2019; Aye et al., 2023) foydalanilgan.

O‘rganilayotgan turlarning soni va hududiy tarqalishini mavsumlar bo‘yicha tahlil qilish maqsadida ArcGis Pro dasturi yordamida to‘r tizimli xaritalash usulidan foydalanilgan (Noris 1960, Sharrok 1976, Bibby et al., 2000; Alabau et al., 2008; Çelik et al., 2017; Özturk et al., 2024). Xaritalash birligi sifatida  $2\times2$  km o‘lchamdagи kvadrat olingan (2-rasm).

Ovlanadigan suv-botqoq qushlari va ularning yashash muhitiga antropogen ta’sir darajasini aniqlash uchun 2017-2024-yillarda umurtqali hayvonlar laboratoriyasining ilmiy tadqiqotlari doirasida ishlab chiqilgan antropogen omillarning ta’sir darajasini aniqlash va baholash yondashuvidan foydalanilgan (Kashkarov va boshq., 2020, 2025).

Farg‘ona vodiysi suv havzalarida yig‘ilgan mavsumiy kuzatuv ma’lumotlari asosida turlar xilma-xilligi ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan. Xususan, Shannon, Simpson, Pielouning tenglik (evenness) hamda Jakkard indekslari hisoblanib, ular fasllar kesimida tahlil qilingan. Barcha statistik usullar R dasturi orqali amalga oshirilgan.



## 2-rasm. Sirdaryoning chap qirg'og'i va Sariqamish ko'ligacha bo'lgan hududning to'r tizimli xaritasi

Dissertatsiyaning “Farg'ona vodiysi suv-botqoq qushlari faunasi, ekologiyasi va iqtisodiy ahamiyati” deb nomlangan uchinchi bobi besh bo'limdan iborat. Unda tadqiqot hududidagi suv-botqoq qushlarining zamonaviy taksonomik tavsifi, uchrash xususiyatlari, hududiy taqsimlanishi, mavsumiy dinamikasi, biologik xilma-xillik ko'rsatkichlari hamda ov turlarining muhim iqtisodiy ahamiyati va uning ekotizimdagi tutgan o'rni ochib berilgan.


Bobning birinchi bo'limida 5 turkum va 6 oilaga mansub 23 turdag'i ovlanadigan suv-botqoq qushlarining ro'yxati hamda ularning tadqiqot hududida uchrash xususiyatlari keltirilgan (1-jadval).

Bobning ikkinchi bo'limida Farg'ona vodiysi suv havzalarining tavsifi va suv-botqoq qushlarining hududiy tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Ov obyekti hisoblangan ushbu turlar asosan ekologik sharoitlar va gidrologik omillarga nisbatan sezgir bo'lganligi sababli, ularning hududiy tarqalishi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Turlarning viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha aks etdi: Andijon viloyatida – 17 tur (74 %); Namangan viloyatida – 14 tur (61 %), Farg'ona viloyatida – 23 tur (100 %). Bunday farqlar suv havzalarining ekologik holati, landshaftning tabiiy xususiyatlari, antropogen ta'sir darajasi va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning mavjudligiga bog'liqdir (3-rasm).

## Farg'ona vodiysining ovlanadigan suv-botqoq qush turlari ro'yxati

Tur		Uchrash xususiyati
G'ozsimonlar turkumi Anseriformes		
O'rdaklar oilasi Anatidae		
1.	Kulrang g'oz <i>Anser anser</i> (Linnaeus, 1758)	MW
2.	Suralay g'oz <i>Tadorna tadorna</i> (Linnaeus, 1758)	m
3.	Qizil o'rdak <i>Tadorna ferruginea</i> (Pallas, 1764)	bMW
4.	Katta churrak <i>Spatula querquedula</i> (Linnaeus, 1758)	MS
5.	Suqsun <i>Spatula clypeata</i> (Linnaeus, 1758)	MS
6.	Qo'ng'ir o'rdak <i>Mareca strepera</i> (Linnaeus, 1758)	MW
7.	Olaqanotli suqsur <i>Mareca penelope</i> (Linnaeus, 1758)	M
8.	Yovvoyi o'rdak <i>Anas platyrhynchos</i> Linnaeus, 1758	BMW
9.	Suqsur <i>Anas acuta</i> Linnaeus, 1758	Ms
10.	Churrak <i>Anas crecca</i> Linnaeus, 1758	MWS
11.	Olmabosh <i>Netta rufina</i> (Pallas, 1773)	BMW
12.	Qizilbosh o'rdak <i>Aythya ferina</i> (Linnaeus, 1758)	B?MW
13.	Haydarkokil <i>Aythya fuligula</i> (Linnaeus, 1758)	MW
14.	Xitoy o'rdagi <i>Bucephala clangula</i> (Linnaeus, 1758)	mw
15.	Yomon cherag <i>Mergellus albellus</i> (Linnaeus, 1758)	mw
16.	Katta cherag <i>Mergus merganser</i> Linnaeus, 1758	MWs
Turnasimonlar turkumi Gruiiformes		
Suvmoshaklar oilasi Rallidae		
17.	Suv tovug'i <i>Gallinula chloropus</i> (Linnaeus, 1758)	BMW
18.	Qashqaldoq <i>Fulica atra</i> Linnaeus, 1758	BMW
Rjankasimonlar turkumi Charadriiformes		
Rjankalar oilasi Charadriidae		
19.	Qizqush <i>Vanellus vanellus</i> (Linnaeus, 1758)	MW
20.	Suv targ'oq <i>Vanellus leucura</i> (Lichtenstein, 1823)	M
Loxyo'raklar oilasi Scolopacidae		
21.	Loxyo'rak <i>Gallinago gallinago</i> (Linnaeus, 1758)	MW
Olushsimonlar turkumi Suliformes		
Qoravoylar oilasi Phalacrocoracidae		
22.	Katta qoravoy <i>Phalacrocorax carbo</i> (Linnaeus, 1758)	BMW
Kurakoyoqlilar turkumi Pelecaniformes		
Qarqaralar oilasi Ardeidae		
23.	Katta ko'lbuqa <i>Botaurus stellaris</i> (Linnaeus, 1758)	BMW


**Izoh:** **B** – uyalovchi; **b** – nomuntazam uyalovchi; **W** – qishlovchi, **w** – nomuntazam qishlovchi; **S** – yozda uchrovchi; **s** – nomuntazam yozda uchrovchi; **M** – migrant; **m** – nomuntazam migrant (Коблик, Архипов, 2014 bo'yicha)



### 3-rasm. Suv-botqoq qushlarining hududiy taqsimlanishi

Biz tadqiq etgan har bir suv havzasining tur xilma-xilligi ularning geografik joylashuvi, gidrologik rejim o‘zgarishlari, oziqa manbalarining mavjudligi hamda antropogen omillar, xususan, xo‘jalik faoliyati va rekreatsion ta’sir bilan belgilanadi.

Qushlarning eng ko‘p tur xilma-xilligi Sirdaryoning chap qirg‘og‘idagi baliqchilik xo‘jaliklarida, Markaziy Farg‘ona suv omborida va “Andijon baliq” MCHJga qarashli hududlarda 17 tadan 21 tagacha turlar qayd etilgan. Aksincha, Qo‘rg‘ontepa, Andijon suv ombori, Varzik, Jiydaliso, Ko‘ksaraksoy kabi suv havzalarida turlar soni nisbatan kam bo‘lib, bu ko‘rsatkich 6-14 tani tashkil etgan (4-rasm).



### 4-rasm. O‘rganilgan suv havzalaridagi suv-botqoq qushlarining turlar xilma-xilligi ko‘rsatkichlari

Bobning uchinchi bo‘limida suv-botqoq qushlarining mavsumiy dinamikasi tahlil qilingan. To‘r tizimli xaritalash usuli asosida Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan suv havzalarida suv-botqoq qushlarining eng yuqori konsentratsiya darajalari hamda mavsumlar bo‘yicha soni to‘g‘risidagi batafsil ma’lumotlar, hududiy va fenologik dinamikalar tahlil qilingan. Natijada 21 tur turli davrlarda 47 ta kvadratdan foydalanganligi isbotlangan. Qishki kuzatuvlar davrida o‘rtacha 7 turga mansub 8851 ta, bahorda 10 turga mansub 4488 ta, yozda va kuzda 7 turga mansub 2005 ta, kuzda 11609 ta individ hudud va unga yondosh suv havzalaridan migratsiya, dam olish, oziqlanish va ko‘payish maqsadlarida foydalangan.

Masalan, Markaziy Farg‘ona suv omborida turli mavsumlarda 19 turning uchrashi qayd etilgan.

Mazkur hududda 4 ta turkumga – Anseriformes, Gruiformes, Charadriiformes, Suliformes hamda 5 ta oilaga Anatidae, Rallidae, Charadriidae, Scolopacidae, Phalacrocoracidae mansubligi aniqlangan. Mavsumlar bo‘yicha qishda 12 ta, bahor va kuzda 16 ta, yozda 14 ta turning uchrashi kuzatilgan. Shundan, qishda o‘rtacha 5953 ta, bahorda 10501 ta, yozda 263 ta va kuzda 4107 ta individ suv havzasidan keng foydalanishi qayd etilgan (5-rasm).



### 5-rasm. Markaziy Farg‘ona suv omborida suv-botqoq qushlarining o‘rtacha uchrash darjasini gradiyentlarining rangli xaritasi (2023–2025 yy.)

Barcha o‘rganilgan suv havzalari uchun ham rang gradiyentlaridan foydalangan holda xaritalar tuzilgan (2-jadval).

**2-jadval**


**Farg‘ona vodiysi suv havzalarida turli mavsumlarda suv-botqoq qushlarining o‘rtacha soni (tadqiqot natijalariga ko‘ra 2023-2025 yy.)**

№	Suv havzalari	Mavsumlar bo‘yicha individlar soni			
		Qish	Bahor	Yoz	Kuz
1.	Qo‘g‘ontepa suv ombori	129	66	-	92
2.	Karkidon suv ombori	2287	1197	204	1785
3.	Jiydalisoj suv ombori	138	124	30	30
4.	Rezaksoy suv ombori	1275	884	59	1060
5.	Varzik suv ombori	305	194	52	304
6.	Ko‘ksaraksoy suv ombori	138	235	33	212
7.	Yangiqo‘rg‘on suv ombori	410	309	34	614
8.	Chortoq suv ombori	4450	1239	53	1479
9.	Andijon suv ombori	350	164	66	508
10.	“Andijon baliq” MCHJ baliqchilik xo‘jaligi	1337	934	171	1673

Hududdagi suv havzalarini tizimli monitoring qilish davomida katta churrik, yovvoyi o‘rdak, churrik, qizilbosh va qashqaldoq kabi turlar barqaror va dominant populyatsiyalarni hosil qilishi hamda boshqa suv qushlaridan son jihatdan ustunligi aniqlangan.

Bobning “Tadqiqot hududi suv-botqoq qushlarining xilma-xillik ko‘rsatkichlari” deb nomlangan to‘rtinchi bo‘limida turli mavsumlarda suv havzalaridan yig‘ilgan kuzatuv ma’lumotlari asosida hududlar bo‘yicha turlar xilma-xilligi ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan. Xusan, Shannon, Simpson, Pielouning tenglik (evenness) va Jakkard indekslari hisoblanib, ular mavsumlar va hududlar kesimida tahlil qilinib, turlar xilma-xilligining yuqori, o‘rtacha va past darajalari aniqlanib, turli suv havzalari uchun bu farqlarning sabablari asoslangan (6-rasm).

Bobning beshinchi bo‘limi “Ovlanadigan suv-botqoq qushlari muhim iqtisodiy resurs va ekotizimning tarkibiy qismi sifatida” deb nomлани, unda 2018–2024-yillarda ov obyekti hisoblangan 12 turning tabiatdan ajratib olishga berilgan arizalar tahlili, suv havzalarining holati va suvda suzuvchi qushlarning hududiy tarqalishi bo‘yicha olingan natijalarni tahlili asosida sport va havaskorlik ovini o‘tkazish uchun eng maqbul hududlarni aniqlab, turlarni mavsumiy uchrash xususiyatlari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, Sariqamish ko‘li, Markaziy Farg‘ona suv ombori, Karkidon, Rezaksoy, Chortoq suv omborlari hamda Andijon baliqchilik suv havzalari ov uchun eng qulay hududlar sifatida tavsiya qilingan.



## 6-rasm. Farg'ona vodiysi suv havzalari bo'yicha turlar xilma-xilligining Jakkard o'xshashlik indeksi ko'rsatkichlari

Ovlanadigan suv-botqoq qushlari nafaqat iqtisodiy resurs, balki ozuqa zanjirning muhim bo'g'ini sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ular yirik ornitofag yirtqich qushlar uchun asosiy oziqa bazasi hisoblanad. Xususan, Farg'ona vodiysi suv havzalarida qayd etilgan suv-botqoq qushlari va boshqa ovlanadigan turlar oq dumli suvburguti (*Haliaeetus albicilla*) kabi kamyob yirtqichlar uchun oziq manbai hisoblanadi. Ovlanadigan suv-botqoq qushlarining soni va populyatsiyasiya dinamikasi yirtqich qushlarning hududiy taqsimlanishi hamda sonining holatini belgilab berishi ko'rsatilgan.

Dissertatsianing “**Farg'ona vodiysidagi ayrim suv-botqoq qush turlarining uyalash biologiyasi**” deb nomlangan to'rtinchi bobida katta qoravoyning Sirdaryoning chap qirg'oqidagi ikkita yirik orollarda yangi uya koloniyalarini topilganligi to'g'risidagi asl ma'lumotlar keltirilgan, inkubatsiya davrining davomiyligi, jo'jalarining tuxumdan chiqish muddatlari aniqlangan, ularning postembrional davrdagi xulq-atvorlari va raqobatli munosobatlari o'rganilgan.

10 ta uyadan olingan 31 ta tuxumning asosiy morfometrik ko'rsatkichlari aniqlandi. Tuxumlarning o'rtacha o'lchami  $62,1 \times 39,1$  mm, og'irligi 48,9 g, hajmi  $48,4 \text{ sm}^3$ , shakl indeksi 62,94 % ni tashkil qildi. Bir uyaga fototuzoq o'rnatilib, qushlarning tabiiy muhitdagi harakatlariga doir ma'lumotlar yozib olingan va tahlil qilingan. Shuningdek, o'rganish jarayonida 25 ta jo'jaga alyuminiy halqalar taqilgan. Uzoq muddatli monitoring sharoitida bu usul kelgusida ularning migratsiya yo'nalishlari va oziqlanish hududlarini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, qizil o'rdak, yovvoyi o'rdak, olmabosh, suv tovug'i va qashqaldoqlarning uyalash biologiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**Farg‘ona vodiysining kamyob, global xavf ostida bo‘lgan va ovlanadigan suv-botqoq qushlari populyatsiyalari holatiga xo‘jalik faoliyatining ta’sirini baholash**” deb nomlangan beshinchi bobida, Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi (TMXI) Qizil ro‘yxatiga kiritilgan 2 tur – qizilbosh o‘rdak va qizqushning Farg‘ona vodiysi suv havzalarida uchrashi, barcha asosiy suv-botqoq yerlaridagi antropogen omillarning xavf darajasi, ularning suv-botqoq qushlari populyatsiyalariga va yashash muhitlariga ta’siri tahlil qilib chiqilgan.

Bobning birinchi bo‘limi noyob va global miqyosda yo‘qolib ketish xavfi ostidagi turlarni saqlab qolishda Farg‘ona vodiysining ahamiyati deb nomlangan bo‘lib, unda qizilbosh o‘rdak va qizqushlarining dunyodagi populyatsiyalar soni va ularning taddiqot hududida sonining kamayib borishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Natijada, ushbu turlar uchun Markaziy Farg‘ona, Karkidon, Chortoq va Andijon suv omborlari qushlarning migratsiya hamda qishlash davrlarida muhim hududlar sifatida qayd etilgan.

Sirdaryoning chap qirg‘oq suv ekotizmlarida nafaqat ov ahamiyatiga ega bo‘lgan suv-botqoq qush turlarining mavsumiy to‘planish joyi sifatida, balki O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga kiritilgan noyob va himoya ostidagi 15 turning ko‘chib o‘tish vaqtida uchrashi bilan ajralib turishi, mazkur holat ushbu hududning ekologik ahamiyatini yanada oshirganligi, noyob turlarni muhofaza qilish va monitoring choralarini kuchaytirish zarururiyati haqida ma’lumotlar bayon qilingan.

Bobning ikkinchi bo‘limi ovlanadigan suv-botqoq qushlariga antropogen omillar ta’siri darajasining tahlili deb nomlangan. Bugungi kunga kelib Farg‘ona vodiysining aholi soni ortishi natijasida hayvonot dunyosiga, ayniqsa ovlanadigan turlarga bo‘layotgan ta’sirini chuqr tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, tadqiq etilgan 12 ta suv havzadagi antropogen omillarning (brakonerlik, chorvochilik, dehqonchilik, gidrologik rejimning o‘zgarishi, o‘simliklarni payhon qilinishi, rekreatsiya) ta’sir darajasi ballarda hisoblab chiqilgan.

Qolaversa, asosiy suv havzalaridagi mavjud antropogen omillarning ta’sir darajalarini tahlil qilish davomida, brakonerlik va tartibsiz ovchilik – 16 ball, chorvachilik – 17 ball, gidrologik rejimning o‘zgarishi – 25 ball, rekreatsion yuklama – 15 ballni tashkil etgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Farg‘ona vodiysisidagi suv-botqoq qushlari uchun antropogen xavfning eng yuqori darajasi Rezaksoy va Qo‘rg‘ontepa suv omborlarida qayd etilgan bo‘lib, ular 12 ballni, Sariqamish ko‘li va Karkidon suv omborida esa 11 ballni, Chortoq suv ombori 10 ballni, Markaziy Farg‘ona suv ombori 9 ballni, Ko‘ksaraksoy va Andijon suv omborlari 6 ballni, Yangiyo‘rg‘on suv ombori 5 ballni, “Andijon baliq” MCHJ baliqchilik hovuzlari 4 balldan hamda Jiydalisoj suv ombori 2 ballni tashkil etgan. Ushbu suv havzalariga rekreatsiya, brakonerlik, chorvachilik va gidrologik rejimning o‘zgarishi kabi turli xil antropogen omillar ta’sir qiladi (7-rasm).



**7-rasm. Farg'ona vodiysi suv havzalaridagi suv-botqoq qushlariga antropogen ta'sir darajasini balli baholash (0-yo'q, 1-past, 2-yuqori, 3-juda yuqori)**

## XULOSALAR

“Farg'ona vodiysida ovlanadigan suv-botqoq qushlari turlarining faunasi va ulardan foydalanish” mavzusida biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasini tayyorlashda olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Farg'ona vodiysi uchun ilk bor 3 ta viloyatning ovlanadigan suv-botqoq qushlari faunasi bat afsil tahlil qilindi. Tadqiqot hududi uchun 5 turkum, 6 oilaga mansub 23 turdag'i ovlanadigan suv-botqoq qushlari uchrashi aniqlandi.

2. Farg'ona vodiysining 12 ta yirik suv havzalarida suv-botqoq qushlarini o'rganish natijasida ularning 17 turi Andijon viloyatida, 14 turi Namangan viloyatida va 23 turi Farg'ona viloyatida tarqalganligi aniqlandi.

3. Sirdaryoning chap qirg'oq bo'yidagi suv havzalarda 21 tur, Markaziy Farg'ona suv omborida 19 tur, “Andijon baliq” MCHJ ga qarashli hovuzlarda 17 tur va qolgan 9 ta suv havzalarida 6-14 turdag'i suv-botqoq qushlari uchraydi. Migratsiya mavsumida suv-botqoq qushlari Sirdaryo daryosi va Markaziy Farg'ona tekisligidan asosiy ko'chish yo'lagi sifatida foydalanishi aniqlandi.

4. 7 tur - uchib o'tuvchi-qishlovchi, 3 - tur uchib o'tuvchi, 8 - tur uchib o'tuvchi, uyalovchi va qishlovchi, 3 - tur uchib o'tuvchi, yozda uchrovchi, 2 tur uchib o'tuvchi, qishlovchi, yozda ham uchrovchi hisoblanadi. Barcha o'rganilgan suv havzalarida katta churraq, yovvoyi o'rdak, churraq, qizilbosh va qashqaldoq kabi turlar boshqa suv qushlariga nisbatan, son jihatdan ustun bo'lган barqaror va dominant populyatsiyalarni hosil qiladi.

5. Shennon, Simpson, Pielo, Jakkard indekslaridan foydalanish Farg‘ona vodiysidagi suv-botqoq qushlari sonining dinamikasi va tur xilma-xilligiga oid qonuniyatlarni aniqlash imkonini berdi.

6. Tadqiqot hududi uchun birinchi marta aniqlangan katta qoravoyning Farg‘ona vodiysi sharoitida uyalash biologiyasining xususiyatlari ochib berildi.

7. Farg‘ona vodiysidagi 12 ta suv-botqoq hududiga antropogen ta’sir darajasi TMXI mezonlari asosida ball tizimi bo‘yicha baholandi. Eng yuqori xavf darajasi Rezaksoy va Qo‘rg‘ontepa suv omborlarida, shuningdek Sariqamish ko‘li hamda Karkidon suv omborida qayd etildi.

8. Tabiatdan foydalanuvchilar murojaatlari, suv havzalarining holati, suv qushlarining mavsumiy va hududiy tarqalishi bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, sport va havaskorlik ovini tashkil etish uchun eng maqbul suv obyektlari: Sariqamish ko‘li, Markaziy Farg‘ona suv ombori, Karkidon, Rezaksoy va Chortoq suv omborlari hamda Andijon viloyatining baliqchilik xo‘jaligi suv havzalari hisoblanadi.

9. Markaziy Farg‘ona suv ombori va Sirdaryoning chap sohili asosiy ovlanadigan turlar uchun qulay yashash sharoitlarini ta’minlashi hamda ularning populyatsiyalarining barqaror sonini saqlashda muhim rol o‘ynashi isbotlandi.

10. Ovlanadigan suv-botqoq qushlari nafaqat iqtisodiy resurs, balki kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarni, ayniqsa oq dumli suvburgutni saqlab qolishda ekotizimlarning muhim tarkibiy qismi ekanligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.В.52.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЗООЛОГИИ**

---

**ИНСТИТУТ ЗООЛОГИИ**

**Умаров Санжарбек Сидикович**

**ФАУНА ОХОТНИЧЬИХ ВИДОВ ВОДНО-БОЛОТНЫХ ПТИЦ  
ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ**

**03.00.06- Зоология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.3.PhD/B1259.

Диссертационная работа выполнена в Институте зоологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) размещён на веб-странице Научного совета ([www.izoology.uz](http://www.izoology.uz)) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Кашкаров Роман Даниилович**  
кандидат биологических наук,  
старший научный сотрудник

**Официальные оппоненты:**

**Холбоев Фахриддин Раҳмонқулович**  
доктор биологических наук, профессор  
**Камилов Бахтиёр Ганиевич**  
доктор биологических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Самаркандский государственный университет**  
имени Шарафа Раширова

Защита диссертации состоится «16» января 2026 г. в 16<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.В.52.01 при Институте зоологии в зале заседаний института (Адрес: 100053, г. Ташкент, ул. Богишамол, дом 232<sup>6</sup>. тел.: (+998) 71-289-04-65; E-mail: zoology@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре при Институте зоологии (зарегистрировано за №1734-AR) Адрес: 100053, г. Ташкент, ул. Богишамол, дом 232<sup>6</sup>. Институт зоологии. Тел.: (+99871) 289-04-65.

Автореферат диссертации разослан «29 » декабря 2025 года.

(регистр протокола рассылки №13 от «29» декабря 2025 года).



**Б.Р. Холматов**

Председатель Ученого совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.б.н., профессор

**Г.С. Мирзаева**

Ученый секретарь Ученого совета  
по присуждению учёных степеней,  
д.б.н., профессор

**А.Э. Кучбоев**

Председатель научного семинара при  
Ученом совете по присуждению ученых  
степеней, д.б.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В настоящее время сокращение водно-болотных угодий в мировом масштабе проявляется как глобальная экологическая проблема, и этот процесс, с одной стороны, приводит к деградации природных ландшафтов, а с другой стороны, к сокращению численности популяций водно-болотных птиц в результате деградации и ухудшения качества их основных мест обитания. Особенно в период миграций возрастание антропогенных воздействий ограничивает зоны остановки и кормёжки птиц, что представляет собой серьёзную угрозу для их естественного жизненного цикла. В этой связи углубленное изучение популяций водно-болотных птиц, оценка уровня антропогенного воздействия и разработка научно обоснованных рекомендаций по обеспечению их устойчивости являются актуальными задачами. Решение данных вопросов имеет важное значение не только для охраны птиц и обеспечения устойчивого использования охотничьих ресурсов, но и в повышении экологического сознания населения и улучшении его социально-экономического благополучия, имеет важное научное и практическое значение.

В мире ведутся масштабные научные исследования, направленные на рациональное использование ресурсов животного мира, в частности - на устойчивое использование водно-болотных птиц, имеющих охотничье значение. В связи с этим, данные исследования направлены на изучение сезонной динамики популяций водно-болотных птиц, сохранение их естественных местообитаний, научное обоснование охотничьих квот, а также формирование системы устойчивого охотопользования видов, что способствует совершенствованию эффективных механизмов управления природных ресурсов на практике. Исследователи уделяют особое внимание разработке научно обоснованных рекомендаций по эффективной организации охотничьих хозяйств, внедрению системы устойчивого использования охотничьих видов животных, развитию охотничьего туризма, формированию базы данных о территориальном распространении объектов охоты с помощью современных компьютерных программ, а также совершенствованию механизмов эффективного управления и регулирования процесса охоты на водоплавающих птиц.

В нашей Республике уделяется особое внимание проведению широкомасштабных работ по сохранению видового разнообразия птиц, их охране, а также ведению кадастра существующих видов. В этом направлении, в рамках этой деятельности особое внимание уделяется охране редких и исчезающих видов, имеющих экономическое значение, мониторингу их популяций и формированию научно обоснованной базы данных. В частности, в Стратегии<sup>1</sup> по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на 2019–2028 годы определены такие задачи, как «обеспечение сохранения и устойчивого использования биологического разнообразия,

---

<sup>1</sup>Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 "О Стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы"

